



MECHANISMS FOR IMPROVING PROSECUTORIAL SUPERVISION OVER THE ENFORCEMENT OF LAWS IN THE FIELD OF PRESCHOOL EDUCATION

Gulshanoy Amonova

Master's student

*Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: preschool education, prosecutorial supervision, risk assessment.

Received: 01.05.25

Accepted: 03.05.25

Published: 05.05.25

Abstract: The importance of prosecutorial supervision over the enforcement of laws in the field of preschool education was highlighted. The necessity of digitalizing activities to enhance efficiency in this sector was substantiated. A proposal was developed to introduce necessary additions and changes to the "Kindergarten" information system of the Ministry of Preschool and School Education and to integrate this system with the prosecutor's office. The implementation of a "risk analysis and assessment" system for prosecutorial supervision in the preschool education sector was justified as a crucial factor for increasing its effectiveness; its advantages and disadvantages were studied, and its project draft was developed.

MAKTABGACHA TA'LIM SOHASIDA QONUNLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI

Gulshanoy Amonova

magistratura tингловчиси

*O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lif, prokuror nazorati, xavfni baholash.

Annotatsiya: Maktabgacha ta'lif sohasida qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazoratining ahamiyati ochib berildi. Sohada samaradorlikni oshirish uchun faoliyatni raqamlashtirish zarurligi asoslab berildi. Maktabgacha va maktab ta'lif vazirligining

“Bolalar bog‘chasi” axborot tizimiga kiritilishi lozim bo‘lgan qo‘sishimchalar va o‘zgartirishlar kiritish va mazkur tizimni prokuratura bilan integratsiya qilish taklifi ishlab chiqildi. Prokuror nazoratining maktabgacha ta’lim yo‘nalishida “xavfni tahlil qilish va baholash” tizimini yo‘lga qo‘yish, prokuror nazoratining mazkur sohada samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi asoslantirib berildi, uning afzalliklari va kamchiliklari o‘rganildi va loyihasi ishlab chiqildi.

МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОКУРОРСКОГО НАДЗОРА ЗА ИСПОЛНЕНИЕМ ЗАКОНОВ В СФЕРЕ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Гульшаной Амонова

Магистратура

*Академия правоохранительных органов Республики Узбекистан
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: дошкольного образования, прокурорского надзора, оценки рисков.

Аннотация: Раскрыта важность прокурорского надзора за исполнением законов в сфере дошкольного образования. Обоснована необходимость цифровизации деятельности для повышения эффективности в этой сфере. Разработано предложение о внесении необходимых дополнений и изменений в информационную систему «Детский сад» Министерства дошкольного и школьного образования и интеграции данной системы с прокуратурой. Обосновано, что внедрение системы «анализа и оценки рисков» в рамках прокурорского надзора в сфере дошкольного образования является важным фактором повышения его эффективности; изучены её преимущества и недостатки, и разработан её проект.

Maktabgacha ta’lim har qanday davlatning kelajagi bo‘lmish yosh avlodni tarbiyalash, ularning har tomonlama kamol topishi uchun poydevor qo‘yadigan strategik ahamiyatga ega sohadir. Ushbu sohada qonuniylikni ta’minalash, bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish alohida e’tiborni talab etadi. O‘zbekistonda prokuratura organlari zimmasiga qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan oliv nazoratni amalga oshirish yuklatilganligi sababli, prokuror nazorati maktabgacha ta’lim sohasida ham muhim o‘rin tutadi.

B.X.Po ‘latov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “Prokurorlik nazoratining bu yo‘nalishdagi ahamiyati mamlakatimizda bola huquqlari va erkinliklarini ta’minalash, ularning qonuniy manfaatlarini

muhofaza etish, eng muhimi, barkamol avlodni tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgani bilan belgilanadi”.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, tizim faoliyatiga oid jami 23 tadan ortiq qonunchilik hujjatlari qabul qilindi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-mayda «O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 4312-sonli farmoni qabul qilindi.

Ushbu konsepsiyani 2019-yilda amalga oshirish bo‘yicha «Yo‘l xaritasi» tasdiqlandi. Konsepsiya o‘rta va uzoq muddatli istiqbol uchun maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish maqsadlari, vazifalari, ustuvorliklari va bosqichlarini belgilab beradi.

O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi me’yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish, qamrov darajasini orttirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta’lim olishlari uchun teng huquqlikni ta’minalash, innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni tatbiq etish, maktabgacha ta’limni boshqarish tizimini takomillashtirish, moliyalashtirishning shaffofligini va samaradorligini ta’minalash, bolalarning sog‘lom va muvozanatli ovqatlanishini, sifatli tibbiy parvarish bilan ta’minalash kabilar ustuvor yo‘nalishlari etib belgilanganligi mazkur sohani ilmiy tadqiq etish zarurligidan dalolat beradi.

Bugungi kunda prokuror nazorati sohasiga innovatsion yondashuvlarni, shu jumladan, raqamlı texnologiyalarni, yangicha tekshirish va ish uslublarini, huquqbazarliklarni aniqlashning yangicha taktika va uslubiyotini joriy etish dolzarb ahamiyatga egadir. Chunki jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar rivojlanib borayotgani sari qonunchilik ham tezkorlik bilan rivojlanib bormoqda. Bu borada prokuror nazoratiga qo‘yilgan talablar ham o‘zgarib boradi albatta. Bu esa o‘z navbatida eskicha ish uslubidan yangicha ish uslubiga o‘tishni taqozo etadi. Qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati samaradorligini oshirish uchun faoliyatga xavfni tahlil qilish tizimini joriy qilish tegishli qonunchilik sohasida tizimli qonun buzilishlarni aniqlash va o‘z vaqtida bartaraf qilish imkonini beradi.

Olimlar V.B.Andreyev va O.A.Insarovlar prokuror nazoratining barcha faoliyat sohalar bilan, shu jumladan axborotni qayta ishlash bilan chambarchas bog‘liqligini asosli ravishda ta’kidlaydi va uning muhim xususiyatlari sifatida ishonchliligi va to‘liqliligini, vaziyatni tushinish va qaror qabul qilish uchun vaziyatni haqiqiy holatiga muvofiqligi bilan izohlaydi. Xuddi shu paytda prokurorga kerakli bo‘lgan ma’lumotlar ko‘pincha qarama-qarshi va yetarli bo‘lmasa, bu ishni sezilarli darajada kamaytiradi. Shu munosabat bilan raqamlı tizimni joriy etish va ulardan faol foydalanish prokuratura nazorati subyektlari harakatlari va qarorlari qonuniyligi va asosliligi

to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tezkor olishni, samaradorlikni obyektiv baholashni ta’minalashning zarur sharti sifatida, shuningdek qonun buzilish holatlai mavjud bo‘lsa, javobgarlik choralarini ko‘rishni ta’minalaydi.

Qozog‘iston Respublikasida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va prokuratura tekshiruvlarini rejalashtirish jarayonini optimallashtirish maqsadida xavflarni baholash tizimi taklifi ishlab chiqilgan.

Shuni ta’kidlash joizki, sohada nazoratni amalga oshiruvchi va cheklangan shtatga ega bo‘limda 1 yil ichida atigi 6 foiz davlat idoralari va milliy kompaniyalarni tekshirish uchun real imkoniyat bor. Shunday qilib, barcha nazorat qilinadigan organlarni rejali tekshirishlar bilan qamrab olish uchun Bosh prokuraturaga kamida 15 yillik ish kerak bo‘ladi. Amaliyot tahlillari shuni ko‘rsatadiki, ayrim davlat tashkilotlari bir necha, ba’zan esa 10 yildan ortiq tekshirilmaydi, boshqalari esa har yili tekshiriladi.

Tekshiruvlarni rejalashtirishda ularning faoliyatida jiddiy qoidabuzarliklarga yo‘l qo‘yish ehtimoli yuqori bo‘lgan tekshirish obyektlarini aniqlash ko‘pincha qiyin. Bo‘lim, qoida tariqasida, nazorat qilinadigan organdagi qonuniylik holati to‘g‘risida subyektiv ma’lumotlarga ega bo‘lib, ular haqiqatda faqat auditdan keyin baholanishi mumkin.

Maktabgacha ta’lim sohasi ko‘plab muammolar xoli emas. Xususan, ba’zi bog‘chalarda davlat budgetidan ajratilgan mablag‘larini olish maqsadida davomatni sun’iy oshirib ko‘rsatish, sodda qilib aytganda, yaxshi maqsadda yaratib berilgan imkoniyatdan qing‘ir yo‘l bilan foydalanish holatlari, kunora ijtimoiy tarmoqlarda bog‘chalarda ayrim tarbiyachilar tomonidan bolalarga nisbatan ishlatilgan qo‘pollik, shavqatsiz munosabatlar aks etgan videolavha va turli xabarlar tarqatilyotganligi, byudjet mablag‘larini talon-taroj qilish holatlari ko‘plab uchrab turadi.

Maktabgacha ta’limda prokuror nazorati sohasida qonun buzilishi xavfini aniqlashning tezkor mexanizmini yaratish zaruriyati mavjud. Jumladan, “xavfni tahlil etish va baholash” maxsus dasturiy ta’midot ishlab chiqish va mazkur dasturiy ta’midotga maktabgacha ta’lim obyektlarini integratsiya qilish orqali ma’lumot almashinuvini yo‘lga qo‘yish lozim.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, xavfni tahlil qilish tizimining asosiy o‘zagini xavfni baholash indikatorlari tashkil etadi. Qonun buzilish xavfini baholash indikatorlari bu – qonunchilikni tegishli sohasida mavjud xavfni aniqlash va tahlil qilish imkonini beruvchi ko‘rsatkichlardir.

Maxsus dasturiy ta’midot orqali nazorat obyekti qanday tahlil qilinadi?

Avvalo, maktabgacha ta’lim elektron portali prokuratura bilan integratsiya qilinadi, shu asosda tahliliy ma’lumot shakllantiriladi.

Maktabgacha va maktab ta’lim vazirligining 2025-yil 1-fevraldan boshlab tajriba-sinov tariqasida Toshkent shahridagi, 1-iyuldan boshlab barcha davlat MTT xodimlar va tarbiyalanuvchilarning elektron davomatini yuritish, ish vaqtini tabelini shakllantirish,

tarbiyalanuvchilarning oziq-ovqat xarajatlarini natura shaklida hisoblash, ota-onalar to‘lovi hamda boshqa to‘lovlar **“Bolalar bog‘chasi”** axborot tizimi orqali amalga oshirilishi hamda nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini boshqarish axborot tizimini “Bolalar bog‘chasi” axborot tizimi negizida o‘zaro birlashuvini hamda ularning “yagona darcha” tamoyili asosida faoliyat yuritishini ta’minlash to‘g‘risida takliflar ma’qullangan.

Davomat va ish vaqtি tabelini elektron tarzda shakllantirish qog‘ozbozlikni kamaytiradi, oziq-ovqat xarajatlari va ota-onalar to‘lovlarini avtomatlashtirish moliyaviy operatsiyalarni tez va aniq amalga oshirish mablag‘larning noto‘g‘ri ishlatalishini kamaytiradi. Bundan tashqari, davlat va nodavlat MTTlarni boshqarish tizimlarini birlashtirish markazlashtirilgan platforma umumiy nazorat va muvofiqlashtirishni yaxshilaydi.

Bundan tashqari **“Bolalar bog‘chasi”** axborot tizimiga quyidagi qo‘sishmchalarni kiritishni maqsadga muvofiq deb topdik:

- 1) *pedagog xodimlarning ma'lumotlari kiritilishi (tibbiy xulosasi, sudlanmaganlik hujjati, kasbiy standartlari);*
- 2) *ota-onalar va jamoat uchun shikoyatlar paneli ochib qo'yish;*
- 3) *portal ikkita kontingent (ochiq va yopiq)dan iborat bo'lishi, jismoniy va yuridik shaxslar ochiq kontingent foydalanuvchilari, Maktabgacha va mакtab ta'lim vazirligi, prokuratura organlari, Bolalar Ombudsmani, voyaga yetmaganlar masalalari bilan shug'ullanuvchi boshqarmalar yopiq kontingent foydalanuvchilari deb topilishi;*
- 4) *maktabgacha ta'lim muassasasining ma'lumotlari (ustav, ta'sis shartnomasi va hkzlar) va hisobotlari;*

Nazorat qiluvchi organ quyidagi asoslar:

- ✓ “Bolalar bog‘chasi” axborot tizimiga kiritilgan ma'lumotlar;
- ✓ Ommaviy axborot vositalari va internet tarmog‘idagi qonunchilikda ta’qiqlanmagan boshqa manbalardan olingan ma'lumotlar;
- ✓ O‘tkazilgan tekshiruv natijalari;
- ✓ Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning MTT to‘g‘risidagi tahlil va ma'lumotlar (xususiy ajrim va taqdimnomalar) orqali avtomatlashtirilgan dastur yordamida oldindan ishlab chiqilgan algoritmlar orqali Mttlar faoliyati tahlil qilinadi.

Mazkur tahlillar asosida qonun buzilish xavfi darajasi bo‘yicha **uchta** segmentga ajratiladi:
a) qonun buzilish xavfi yuqori bo‘lgan nazorat obyektlari (*qizil*); **b)** qonun buzilishi xavfi o‘rtacha bo‘lgan nazorat obyektlari (*sariq*); **d)** qonun buzilish xavfi yo‘q bo‘lgan nazorat obyekti (*yashil*).

Maktabgacha ta’lim muassasalarida xavf tahlili maktabgacha ta’lim muassasasi tegishli organi tomonidan tekshirilgandan keyin yoki o‘ziga kelib tushgan murojaat asosida mazkur muassasaning maxsus dasturiy ta’midotidagi sahifasiga axborotni kiritadi. Masalan, tuman

Sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi mutaxasislari tomonidan davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida mashg‘ulot va yotoqxonalarda kunlik tozalov ishlari talab darajasida olib borilmaganligi, kompleks tozalov kunlari bo‘yicha grafik ishlab chiqilmaganligi (San K va M 0355-18 ning 16.1-16.7bandlari), muassasa oshxonasida ham kunlik tozalov ishlari o‘tkazilmaganligi, non saqlash joylarini tozalash uchun 1 %lik oshxona sirkasi tayyorlanmaganligi, 10 %lik oshxona sirkasi ham mavjud emasligi, muassasa hamshiralari tomonidan yillik ish rejalarini tuzilmaganligi, tarbiyalanuvchilarga berilgan 10 kunlik taomnomalar O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarni xavfsiz va sifatli ovqatlanishini tashkil etilishiga oid gigienik talablar to‘g‘risida”gi 0016-21-sonli sanitariya qoida va me’yor talablarini 2-ilovasiga muvofiq tahlil qilib borilmaganligi, tuman MMTB tomonidan tibbiyat xonasi uchun birinchi yordam dori-darmonlari hamda gigienik vositalar ta’mnoti yo‘lga qo‘yilmaganligi qayd etilganlik holatlari qonun buzilish sodir etgan tegishli maktabgacha ta’lim tashkiloti sahifasiga kirib, “*maktabgacha ta’limda sodir etilgan qonun buzilishlar soni*” indikatori bo‘limiga kiritadi. Bunda, agar mazkur indikator grafasiga kiritilgan jami huquqbuzarlik soni 0 tani tashkil etsa “yashil” segment, 2-3 tani tashkil etsa “sariq” segment, 4 ta va undan ortiqni tashkil etsa “qizil” segment ishga tushadi va bu kelgusida huquqbuzarliklar profilaktikasi ahvoli bo‘yicha vakolatli organ hamda ta’lim muassasasi faoliyatiga yetarli darajada baho berish imkoniyatini beradi.

Bundan tashqari, tegishli xavf darajasi prokuror nazorati tekshiruviga nomzod etib belgilash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur tizim qonun buzilish xavfi past bo‘lgan obyektlarga nisbatan asossiz aralashuvlarni, noqonuniy tekshiruvlarni oldini olgan bo‘ladi.

Bizningcha, maktabgacha ta’lim muassasalarida mavjud xavf holatini segmentlashda xavfni baholash indikatorlari quyidagilar bo‘lishi mumkin:

O‘zbekiston Respublikasining 16.12.2019-yildagi 595-sonli “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida” gi qonuni ijrosi talablariga ko‘ra xavf indikatorlari:

1) maktabgacha muassasada ta’lim va tarbiyani tashkil etish bolalarning individual xususiyatlari hisobga olingan holda tashkil etilgan (hudud bo‘yicha) – 86-100 % “yashil”, 85-71% “sariq”, 70-va undan past “qizil”;

2) muassasada guruqlar belgilangan bolalarning toifasiga va ularning yoshiga qarab to‘ldirilganligi (belgilangan hudud doirasida qabul qilingan bolalar soniga qarab) - 86-100 % “yashil”, 85-71% “sariq”, 70-va undan past “qizil”;

3) pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanishi ta’qiqlangan shaxslarning maktabgacha ta’lim muassasasidan ushbu faoliyat bilan shug‘ullanishga yo‘l qo‘yilmaganligi, pedagogik kasbiy standartlarga mosligi – “yashil”, mazkur shaxslarning faoliyati mavjud va mos emasligi – “qizil”;

4) maktabgacha ta’lim tashkilotida siyosiy partiyalar va diniy tashkilotlarning tashkiliy tuzilmalari tashkil etilishiga hamda faoliyat yuritilishiga yo‘l qo‘yilmaganlik holati mavjud – “yashil”, mavjud emas – “qizil”.

Prokuratura tomonidan taqdim etilgan tekshiruv o‘tkazish to‘g‘risidagi buyurtmada quyidagi ma’umotlar ko‘rsatiladi:

- ✓ *tekshiruv o‘tkazuvchi organ nomi;*
- ✓ *tekshiruv o‘tkaziladigan maktabgacha ta’lim tashkilotining nomi (soni), identifikasiya raqami, manzili;*
- ✓ *tekshiruv o‘tkazish uchun asos;*
- ✓ *talablari buzilishi mumkin bo‘lgan normativ-huquqiy hujjat to‘g‘risida ma’lumot;*
- ✓ *tekshiruv o‘tkazish muddati;*
- ✓ *tekshiruv predmeti;*
- ✓ *tekshiriladigan faoliyat davri.*

Buyurtmaga jismoniy yoki yuridik shaxsning qonunbuzilish holatlari haqidagi murojaati nusxasi, “xavfni tahlil qilish va baholash” tizimi orqali aniqlangan qonun buzilish holati bo‘yicha bat afsil ma’lumot hamda tekshiruv dasturi ilova qilinadi.

Tekshiruv dasturi ushbu murojaatda ko‘rsatilgan holatlar yoki “xavfni tahlil qilish va baholash” tizimi orqali aniqlangan qonunbuzilishlar doirasida tuzilishi va nazorat qiluvchi organ rahbari tomonidan tasdiqlanishi shart.

Buyurtma vakolatli organ tomonidan uch ish kunitan kechiktirmasdan ko‘rib chiqiladi hamda tekshiruvni o‘tkazish kelishilganligi yoki rad etilganligi to‘g‘risida qaror qabul qilinadi.

Maktabgacha ta’limda qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati sohasida “*xavfni tahlil qilish va baholash*” tizimining afzalliklari:

- *Nazoratni takomillashtirishning maxsus komponenti hamda qonunlar ijrosiga oid huquqbazarliklarni o‘z vaqtida aniqlash va oldini olishning tezkor mexanizmi sifatida;*
- *Ochiq va shaffof amaliyot shakllanadi;*
- *Vaqt tejaladi;*
- *Tezkor ma’lumot almashinuvi vujudga keladi;*
- *Nazorat obyektlarida ortiqcha tekshiruvlar va asossiz aralashuvlarning oldini olish;*
- *Qonun buzilish xavfi yuqori bo‘lgan Mttlarga e’tiborni jalb qilib, prokuraturaning tasarrufidagi mavjud resurslardan samarali foydalanishni ta’minlaydi;*
- *Latent qoidabuzarliklar ko‘lamini qisqartiradi;*
- *Nazorat tekshiruvini amalga oshirish uchun aniq tahliliy asos mavjud;*
- *Hamkorlik mustahkamlanadi.*

Kamchiliklari esa:

- *Xavfsizlik masalasi;*
- *Texnik qiyinchiliklar;*
- *Tizimni joriy etish va undan foydalanish uchun moddiy jihatdan resurslar yetishmasligi, mutaxasislar jalb qilish masalasi;*

Maktabgacha ta’lim muassasalarida xavfni tahlil etish va baholash tizimining yuridik tushunchasi mavjud emasligi bois, mazkur atamaga mualliflik ta’rifini ishlab chiqdik:

“Prokuror nazoratining maktabgacha ta’lim yo‘nalishida xavfni tahlil qilish va baholash tizimi” – prokuratura organlari tomonidan maktabgacha ta’lim va tarbiya muassasasidan olingan ma’lumotlar asosida xavfning yuzaga kelish sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini hamda tegishli qonun va normativ hujjatlarning ijrosiga rioya etilmasligining ehtimol tutilgan oqibatlarini obyektiv mezonlar asosida rejali tekshiruvdan o‘tkazish imkonini beruvchi baholash faoliyati” hisoblanadi.

Maktabgacha ta’limda qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati sohasida “*xavfni tahlil qilish va baholash*” tizimini joriy qilish uchun amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar:

1) maktabgacha ta’limning axborot tizimini prokuratura hamda boshqa organlar bilan integratsiya qilish va mazkur tizimda maxsus dasturiy ta’midot ishlab chiqish lozim;

2) prokuror nazorati tekshiruvlari uchun mavjud asoslar doirasini kengaytirish lozim. **“Prokuratura to‘g‘risida”**gi Qonunning qonunlar ijrosini tekshirish deb nomlangan **21-moddasida** berilgan “*arizalar va boshqa ma’lumotlar...*” jumlasini “*arizalar, ommaviy axborot vositalari tomonidan bergen ma’lumotlar va “xavfni tahlil etish va baholash” tizimi orqali olingan ma’lumotlar*” jumlasiga o‘zgartirish kiritish;

3) shaffoflik va xolislikni ta’minlash maqsadida mazkur tizimda tekshiruvlarni faqat obyektiv ma’lumotlar asosida inson omilini kamaytirish orqali samarali tarzda olib borish zarur.

Prokuror nazoratining maktabgacha ta’lim yo‘nalishida “*xavfni tahlil qilish va baholash*” tizimi umuman prokuratura organlarining ham, tekshirilayotgan obyektlarning ham faoliyatini takomillashtirishda ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Po‘latov B.X. Voyaga yetmaganlarga oid milliy qonunchilik tizimi, qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazoratining maqsad va vazifalari // Voyaga yetmaganlar va yoshlarning huquqlarini himoya qilish tizimi: muammolar va yechimlar.
2. Андреев В.Б., Инсаров О.А. Информатизация органов прокуратуры Российской Федерации // Настольная книга прокурора. В 2 ч. Ч. 1: практ. пособие / Под общ. ред. О.С. Капинус, С.Г. Кехлерова. 5-е изд., перераб. и доп. М.: Юрайт, 2019. С. 69.

3. Выступление начальника Отдела 1-го Департамента на семинаре с участием руководства территориальных прокуратур на тему: Внедрения в органах прокуратуры системы оценки рисков при планировании прокурорских проверок.

4. Адамов, Б. А. Внедрение в органах прокуратуры системы оценки рисков при планировании прокурорских проверок / Б. А. Адамов. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. — 2016. — № 17 (121). — С. 191-193. — URL: <https://moluch.ru/archive/121/33380/>

5. LEX.UZ